



O'ZBEKISTON. DEMOGRAFIK RIVOJLANISH VA URBANIZATSIYA

i.f.d., prof. Umurzakov Baxodir Xamidovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy
asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi
ORCID: 0009-0000-8140-1700

umurzakovboxodir807@gmail.com

g.f.d., prof. Tojjeva Zulxumor Nazarovna
O'zbekiston Milliy universiteti
ORCID: 0000-0001-5626-9517
z_tadjieva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola shahar aholisining tezlik bilan o'sishi, aholining yirik va katta shaharlarda to'planishi, shaharlar chegarasi kengayishida demografik jarayonlar va ularning rivojlanishi masalalariga bag'ishlangan. Bunda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida olib borilgan siyosat mahsuli bo'lgan mavjud shahar aholi manzilgohlari shakllanishi, unda aholi tabiiy va mexanik harakatlari ko'lami, xususan aholining tashqi va ichki migratsiya natijasida shakllanishi asoslangan. Shuningdek, dunyoning barcha mamlakatlarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham aholining demografik rivojlanish tendensiyalari boshqa ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar qatori urbanizatsiyaga bevosita ta'sir ko'rsatayotganligi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: shahar, urbanizatsiya, migratsiya, aholi punkti, aholi tarkibi, demografiya, hudud.

УЗБЕКИСТАН. ДЕМОГРАФИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И УРБАНИЗАЦИЯ

д.э.н., проф. Умурзаков Баходир Хамидович
Научно-исследовательский центр
«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете
д.г.н., проф. Тожиева Зулхумор Назаровна
Национальный университет Узбекистана

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам стремительного роста городского населения, концентрации населения в крупных и больших городах, демографическим процессам при расширении границ городов и их развитию. В ней обосновано формирование существующих городских поселений, являющихся результатом политики, проводимой в целях социально-экономического развития страны, рассмотрены масштабы естественного и механического движения населения, в частности, формирование населения в результате внешней и внутренней миграции. Также научно обоснован тот факт, что тенденции демографического развития населения в Узбекистане, как и во всех странах мира, наряду с другими социально-экономическими процессами, оказывают непосредственное влияние на урбанизацию.

Ключевые слова: город, урбанизация, миграция, населенный пункт, состав населения, демография, территория.

UZBEKISTAN. DEMOGRAPHIC DEVELOPMENT AND URBANISATION

DSc, prof. Umurzakov Bakhodir Khamidovich
Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems
of the Development of the Economy of Uzbekistan"
under Tashkent State University of Economics
DSc, prof. Tojieva Zulkhumor Nazarovna
National University of Uzbekistan

Abstract. *This article is dedicated to the issues of rapid urban population growth, concentration of population in large and major cities, demographic processes in the expansion of city boundaries, and their development. The formation of existing urban settlements is substantiated as a result of policies aimed at the country's socio-economic development, the scale of natural population growth and migration, particularly the formation of population due to external and internal migration. It is also scientifically justified that demographic development trends in Uzbekistan, as in all countries worldwide, along with other socio-economic processes, have a direct impact on urbanization.*

Keywords: *city, urbanization, migration, settlement, population composition, demography, territory.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasida aholining hududiy tarkibida qishloq aholisining salmog'i kamayishi hisobiga shahar aholisi va shahar aholi manzilgohlarining doimo eniga va bo'yiga o'sishi ro'y bergan bo'lsa, mustaqillik yillari ushbu qonuniyatga zid ravishda aksincha vaziyat vujudga keldi, ya'ni umumiy aholining miqdori ortib borsada, 1990 yillardan shahar aholisining jami aholidagi salmog'i yildan-yilga qisqarib, urbanizatsiya darajasi pasaya boshlaganligini ko'rish mumkin. Chunki, mavjud shahar aholi manzilgohlari asosan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida olib borilgan siyosat mahsuli bo'lib, ularning aksariyati aholisi tashqi va ichki migratsiya natijasida shakllangandir. Bunda ayniqsa, aholining qishloqlardan shaharlarga intensiv migratsiyasi shaharlar aholisi ko'payishini ta'minlab kelganligini keltirish o'rinli.

Dunyoning barcha mamlakatlarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham aholining demografik rivojlanish tendensiyalari boshqa ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar qatori urbanizatsiyaga jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, bunday holat respublika shahar aholisining oxirgi 20-30 yilda soni va salmog'i ortishida yaqqol kuzatilmoqda.

BMT hisob-kitoblariga ko'ra, hozirda O'zbekiston aholisining deyarli 51 foizi shaharlarda istiqomat qiladi, bu global urbanizatsiya darajasi 56,2 foizga yaqin. Biroq urbanizatsiya dinamikasi haqida gap ketganda, respublika urbanizatsiya sur'atlari o'rtacha bo'lgan mamlakatlarning umumiy fonidan ajralib turadi. Ajablanarlisi shundaki, O'zbekiston shahar aholisining o'rtacha ulushiga ega bo'lishiga qaramay, so'nggi bir necha o'n yilliklarda ko'pchilik mamlakatlarga nisbatan sezilarli darajada urbanizatsiyalangan, ammo oxir-oqibatda shahar aholisi ulushining boshqa mamlakatlarga nisbatan sekin o'sishi va hatto ayrim yillari urbanizatsiya darajasining pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Shaharlarni iqtisodiy- ijtimoiy va demografik nuqtayi-nazaridan tadqiq etish iqtisodiyotni rivojlantirish va joylashtirishda o'ta muhimdir. Shaharlar, urbanizatsiya muammolari davlatlarning rivojlanishida, taraqqiyotida, ularning dunyo hamjamiyatidagi o'rnini belgilashida muhim ilmiy, madaniy hamda ma'rifiy ahamiyatga egadir. Shaharlar rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonlari, ularni tadqiq etish muammolari eng muhim ilmiy yo'nalishlardan hisoblanadi. Jumladan, ushbu muammolar bilan juda ko'plab olimlar ish olib borishgan va

davom ettirishmoqda. Jumladan, Davidovich (1906-1978), Lappo (1978), Listengurt (1974), Пивоваров (1999), Polyan (1988) lar ishlari alohida ahamiyatga egadir. Shaharlarning ko'payishi, urbanizatsiya jarayonining rivojlanishini olimlar tomonidan ilmiy va amaliy o'rganish asosida o'z davriga mos, turli qonuniyatlar, nazariya va konsepsiyalar yaratildi.

Shaharlar rivojlanishi va joylanishi, uning hududlar taraqqiyotidagi rolini tadqiq etishning ilmiy asoslari Tyunen (Модели в географии, 1971), Мерфи (1972), П. Геддес (Проблемы изучения городских агломераций, 1988), Готтман (Пивоваров Ю., 2007 va boshqa olimlar tomonidan batafsil o'rganilgan. Ular tadqiqotlarida shaharlar rivojlanishi va joylanishining ilmiy nazariyalarini hamda ularning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish bilan shug'ullanishgan. Jumladan, Forrestr yirik shaharlarning dinamik rivojlanishini tizimli tahlil va EHM asosida modellashtirib, uzoq muddatga prognozlashtirgan (Фоппестер, 1974).

Yirik shahardan atrofga tarqaluvchi bosh transport yo'llariga, ikkinchi darajali transport tarmoqlari kelib tutashadi. Ana shu yerda, shahardan ma'lum uzoqlikda yo'llar tutashadigan nuqtada keyingi pog'onadagi aholi manzilgohini joylashtirish maqsadga muvofiqligini 1850-yilda Kol o'z nazariyasida asoslab beradi. Aholi manzilgohlarini joylashtirish, uning atrofida tarmoqlarni joylashtirish nazariyalari bilan Nemis olimlari dunyoga mashhur. Bulardan, nemis olimi V.Kristallerning "Janubiy Germaniyada markaziy o'rinlar" (keyinchalik "Markaziy o'rinlar" nazariyasi bilan mashhur bo'lgan) nazariyasida iqlim, aholi zichligi, transport va boshqa jihatdan bir xil xususiyatlarga ega bo'lgan hududda shaharlar ma'lum qonuniyatga asoslanib joylashishini aniqlagan.

Rossiyada Semenov-Tyanshanskiy 1910-yilda "Rossiyaning Yevropa qismidagi shahar va qishloq" ("Город и деревня Европейской России") asarini chop etadi. Unda, shaharlar umumsayyoraviy markazlar bo'lib, ulardan tarqalgan radiuslar bo'ylab, muayyan masofada unga yordamchi kichikroq shaharlar joylashadi va uning atrofidagi hududlar iqtisodiy jihatdan o'sha markazga qaram bo'lishi ilmiy ko'rsatib beriladi.

O'zbekistonda esa ko'rilayotgan muammoning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jihatlari Z.M.Akramov (1964), E.A.Ahmedov (2002), S.S.Zokirov (1996), T.N.Mallaboyev (1982), O.B.Ota-Mirzayev (1985), T.I.Raimov (1964), A.S.Soliyev (1984; 2002), Z.X.Rayimjonov (1992), R.N.Tillayev (1975), A.A.Qayumov (1994) S.Zokirov, tadqiqotlarida o'z aksini topgan. O'zbekistonda Ota-Mirzayev aholi joylashuvi hududiy tizimlarini shakllanish jarayonlarini o'rganish asosida ularni bir necha tiplarga ajratgan va prognozlashtirgan (Ata-Mirzayev O.B., 1979). O'rta Osiyo davlatlari urbanizatsiya jarayonlari, shahar aholi punktlarining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari (Soliyev, 1976-1999 yy.) O'zbekiston shaharlari va shahar aholi manzilgohlari rivojlanishi (Солиев, 2013).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilib, hududlar kesimida o'zaro taqqoslash usuli, tizim-tahlil tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

XIX asrda fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi sababli, aholining qishloq aholi manzilgohlaridan shahar aholi punktlariga ko'plab miqdorda ko'chib borishi, yirik shahar aholi punktlari sonining ko'payishi, shahar aholisi salmog'ining ortib borishi va qishloq aholi punktlari ham shaharcha turmush tarzining keng yoyilishi bilan bog'liq bo'lgan urbanizatsiya jarayonlari tez sur'atlar bilan rivojlanib bordi. XXI asrga kelib urbanizatsiya bo'hrondek rivojlangan va rivojlanayotgan davr bo'ldi. Urbanizatsiya rivojlanishida shahar aholi punktlari soni va salmog'i ortishida aholisining ko'p-ozligini hisobga olinishi bilan bir qatorda, ijtimoiy - iqtisodiy omillar ham muhim o'rin egallaydi, ammo shunga qaramasdan, aholining tutgan mavqei bu yerda hamisha yetakchi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida 2025-yil ma'lumotiga ko'ra 1179 ta shahar aholi punktlari bo'lib, shundan 120 ta shaharlar, 1059 tasi shahar aholi posyolkalariga kiruvchi aholi punktlari mavjud bo'lgan. Bu aholi punktlarining kattaligi juda xilma-xildir, aholisi bir necha ming kishidan iborat kichik shaharlardan tortib, bir milliondan ortiq aholiga ega yirik shaharlargacha. Mustaqillik yillarida shaharlardagi aholi punktlarining ko'lami, asosan, aholi sonining o'zgarishi bilan bog'liq holda keskin o'zgardi. O'zbekistonda demografiya va aholining hududiy harakatidagi keskin o'zgarishlar shahar aholi posyolka tizimlarining hududiy tarkibida juda muhim o'zgarishlarga olib keldi (Tojiyeva, Omanova va boshq., 2024).

O'zbekistondagi urbanizatsiya tendensiyalari dunyoning ko'pgina boshqa mamlakatlaridagi urbanizatsiyaning umume'tirof etilgan namunalariga to'g'ri kelmadi, bu yerda jarayon ancha sekin va bir xilda kechdi. O'zbekistonda, Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari kabi, 1990 yillardan boshlab urbanizatsiya darajasi biroz o'sgan bo'lsada, u boshqa o'rtacha daromadli mamlakatlarda yoki butun dunyoda bo'lgani kabi tez sur'atda bo'lgani yo'q. Shunday qilib, 1990 yilda O'zbekiston aholisining 40,7 foizi shaharlarda yashagan, bu o'sha davrda shahar aholisining salmog'i unchalik yuqori emas edi. Respublikada, 2009 yildan keyingi urbanizatsiya darajasining su'niy ko'tarilishi hisobiga keyingi yillarda uning salmog'i 50 foizdan baland bo'lib kelmoqda. Xususan, 2025 yilga kelib shahar aholisi salmog'i 51 foizga yetdi. Masalan, 1990 yilda shaharlarda yashovchi dunyo aholisining o'rtacha ulushi taxminan 46% ni tashkil etgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich atigi 36,7% ni tashkil etdi. Qizig'i shundaki, O'zbekistonda shahar aholisining ulushi ko'p yillarda deyarli o'zgarmagan (1-jadvalga qarang).

Biroq bu tendensiya har doim ham O'zbekiston aholisining demografik rivojlanish sur'atlariga mos kelavermaydi. Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari va umuman Sobiq Ittifoq mamlakatlarida so'nggi bir necha o'n yilliklarda shahar va qishloq aholisi ulushi o'rtasidagi tafovutda keskin o'zgarishlar ro'y berdi.

1-jadval

Shahar aholisi salmog'i

	1980	1990	2000	2010	2020	2025
O'zbekiston	40,7	40,7	37,4	49,5	50,5	50,9
O'rta Osiyo	45,2	45,2	45,7	48,0	48,3	49,1
Sobiq sovet davlatlari	62,6	65,6	65,3	65,7	65,4	65,6

Manba: DESV OON, 2021.

Ko'rinib turibdiki, mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy rivojlanishini tubdan isloh qilish davrida sodir bo'lgan demografik va geografik jarayonlar (qishloqda kolxozlar va boshqa xo'jalik usullarining tugatilishi, transport kommunikatsiyalari, yo'llar va elektron aloqa tizimining o'zgarishi, aholining qishloq va shahar o'rtasida taqsimlanishining bunday noodatiy modelining asosiy sabablari bo'ldi Mamlakat shaharlarining hozirgi holati va tuzilishini belgilab bergan tub ijtimoiy-demografik o'zgarishlarni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va demografik jarayonlarning moslashuvi davri kontekstida ko'rib chiqish kerak, shuning uchun ham mustaqillik yillarida sodir bo'lgan tub o'zgarishlarni sobiq ma'muriy tizimning aholini demografik nazoratini qat'iy markazlashtirilgan boshqarish tamoyiliga chuqur o'zgartirish, deb tavsiflash mumkin. O'zbekistonning yangi qabul qilingan Konstitutsiyasida nazarda tutilgan jismoniy shaxsning yashash joyini tanlash erkinligi, ro'yxatga olishni bekor qilish asosida aholini joylashtirish va ko'chirishning miqdoriy shakllari urbanizatsiya darajasiga xam ma'lum ma'noda o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Darhaqiqat, shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda qishloq joylarda iqtisodiy faoliyatning yangi shakllari (fermer xo'jaligi, klasterlar va erkin iqtisodiy faoliyat) paydo bo'lishi

munosabati bilan aholining davriy va hududiy taqsimlanishida juda jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Biroq mustaqillik yillarida aholining qishloq aholi punktlaridan shaharga ko'chishi hali ham nisbatan ahamiyatsiz edi, chunki aholi ko'chishining asosiy qismi shaharlar o'rtasida sodir bo'lgan. Bu esa respublikada demografik o'tish davri sezilmadi, urbanizatsiya darajasi, asosan, aholining kichik shaharlardagi aholi punktlaridan yirik shaharlarga ko'chishi bilan tavsiflandi xolos. Natijada shahar aholisining salmog'i ko'p yillarda o'zgarmadi hatto kamayib bordi. Oqibatda, shaharlar deb tasniflangan aholi punktlarining umumiy soni sezilarli darajada o'zgarishlar bo'lmadi.

Jumladan, 1990-2009 yillarda respublikdagi shaharlar soni 5 taga kamaydi, shahar tipidagi posyolkalari soni esa 976 taga ko'paydi. Shahar aholisi ko'payish manbai tabiiy harakat bo'lish bilan birga ayrim tuman markazlariga shahar va shaharcha maqomining berilishi uning soni va salmog'ini oshirdi. "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunining 12-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-120-sonli qaroriga binoan 2000 dan ortiq kishi yashaydigan, Qonunda ko'zda tutilgan moddalarga mos keladigan qishloqlarni shaharchalarga aylantirish vazifasi bo'yicha 2009 yildan yirik va katta shaharlar salohiyatini oshirish, ularda iqtisodiyotning ustivor tarmoqlarini shakllantirish va takomillashtirish uchun qilinayotgan sa'y-harakatlar bois, 966 ta qishloq aholi punktlari shaharchalarga aylantirildi (Qonun, 1996; Qaror, 2005). Oqibatda, 2009 yili shahar tipidagi aholi punktlari soni 1080 taga etdi, shaharlar soni 119 tadan iborat bo'ldi. Respublikadagi mavjud shahar tipidagi posyolkalar jami shahar aholi punktlarining 90,0 foizini, aholisining 39,2 foizini qamrab oladi (Солиев, 2013).

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risidagi (Ўзбекистон Қонун ҳужжатлари тўплами 2005) O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga binoan Shaharchalar turkumiga sanoat korxonalari, qurilishlar, temir yo'l stansiyalari va boshqa muhim obyektlar yaqinida joylashgan hamda qoida tariqasida kamida ikki ming aholisi bo'lgan aholi punktlari kiritilishi mumkin. Mazkur omillar qishloqlarga shaharcha maqomini berish chog'ida qat'iy hisobga olinishi va ularga rioya qilinishi lozim. Shu boisdan, dastavval shaharcha toifasiga o'tkazilayotgan qishloqlarni haqiqatan shahar maqomiga loyiq ekanini asoslash va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish darajasini chuqur ilmiy o'rganish zarur. Sababi, bitta qaror bilan birdaniga mingga yaqin yangi shaharchalarning paydo bo'lishi qator muammolarni keltirib chiqarishi aniq. Natijada, yangi shaharchalarning eski muammolari to'g'risida gapirish mumkin. Chunki, qishloqlar maqomini o'zgartirish bilan ularning muammolari butunlay hal bo'lib qolmaydi, yangi shaharchalar paydo bo'laveradi, ammo muammolar qolaveradi.

Yangidan shaharchalar maqomiga ega bo'lgan aholi punktlarining barchasida ham moddada ko'rsatilgan mezonlar mavjud, deb bo'lmaydi. Jumladan, 966 ta shaharchalarning har birida aholi soni 2000 kishi va undan ko'pni tashkil etadi, ammo sanoat korxonalari, qurilishlar va temir yo'l stansiyalari to'liq bo'lmagan, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari rivojlanmagan qishloqlarga ham shaharcha maqomining berilganligi urbanizatsiya darajasining su'niy ko'tarilishidir xolos. Yangi shaharchalarning barchasida ham haqiqiy shahar hosil qiluvchi tarmoqlar (qishloq xo'jaligi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan sohalar) mavjud emas yoki sust rivojlangan. Binobarin, ularni agrosaharlar, deb atash ma'qulroq sanaladi. Agrosaharlarning ko'plab vujudga kelishi respublika va uning viloyatlarida urbanizatsiya darajasining keskin ko'tarilishiga olib keldi. Keyingi yillarda ayrim sanoat korxonalari va foydali qazilma konlari turli sabablarga ko'ra normal faoliyat yurita olmayaptilar. Bu esa ushbu korxonalar joylashgan aholi manzilgohlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shahar posyolkalari ko'proq foydali qazilma konlari, temir yo'l stansiyalari yaqinida yoki qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar bazasida tashkil etilishi lozim. Aholi punkti

shahar posyolkasi maqomiga erishishi uchun aholi soni 2 mingdan kam bo'lmashligi, aholisining uchdan ikki qismidan ko'ppog'i ishchi-xizmatchilar va ularning oila a'zolaridan iborat bo'lmog'i lozim. O'rganishlar natijasidan, yangi tashkil etilgan aholi punktlarida o'z belgilariga ko'ra, hozirda Qonunda ko'zda tutilgan talablarning hammasi ham uchramasligi aniqlandi. Bu esa, mazkur sohada jiddiy yondoshuv zarurligini taqozo etadi.

2-jadval

**O'zbekiston Respublikasi shahar va shahar tipidagi aholi punktlarining tarkibi
(1989-2025 yy.)**


Shahar aholi punktlari kategoriyasi	Shahar va shahar tipidagi posyolkalar soni, ta				Aholisi, foiz hisobida			
	1989 yil	1999 yil	2009 yil	2025 yil	1989 yil	1999 yil	2009 yil	2025 yil
Jami shahar aholi punktlari	221	234	1199	1179	100	100	100	100
shu jumladan,								
9,9 ming kishigacha	86	78	975	926	6,34	5,01	27,90	21,94
10,0-19,9	68	71	124	123	11,95	10,84	11,94	9,56
20,0-49,9	44	54	65	86	16,50	16,75	12,85	14,92
50,0-99,9	7	14	18	24	5,54	9,43	8,01	10,05
100,0-499,9	15	16	16	17	34,12	34,47	23,92	20,42
500,0-999,9	-	-	-	2	-	-	-	6,84
1000 ming va undan ko'p	1	1	1	1	25,54	23,50	15,38	16,26

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblandi.

O'zbekistonda shahar aholi punktlarining soni 2025 yilda 1179 tani tashkil etgan bo'lsa, shundan yirik shaharlar soni tobora ko'payib, kichik shaharlar soni kamayishi ro'y bermoqda. Bunga mutanosib ravishda, shahar aholi punktlarining iqtisodiyoti va ijtimoiy rivojlanishidagi fundamental jarayonlar sezilarli darajada o'zgardi. Xalqaro savdoga faol qo'shilish va davlatning sanoat tovarlariga bo'lgan talabining keskin qisqarishi o'rta va kichik shaharlardagi aholi punktlari (monoshaharlar) sanoatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi, bu ularning tez sur'atlarda pasayishiga olib keldi. Boshqa tomondan, yirik shaharlar demografik o'sish nuqtai-nazaridan sezilarli foyda ko'rdi, chunki ular aholi oqimining asosiy diqqatga sazovor joylariga aylandi, birinchi navbatda, yaxshi ish o'rinlari va shahar sharoitlarini izlash uchun kichik shaharlardan aholining ko'plab ko'chib o'tishi ro'y berdi (Tojiyeva, Omanova 2024).

So'nggi o'ttiz yillikdagi shahar demografik statistikasi tahlili aholi soni 50 dan 250 ming kishigacha bo'lgan kichik, o'rta va katta shahar aholi punktlaridagi demografik o'zgarishlar bilan ularning aholi soni 200 dan ortiq kishi bo'lgan eng yaqin yirik shaharga yaqinligi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Keyingi o'n yilliklarda mamlakatning umumiy demografik holati yaxshilana boshladi, kichik va o'rta shaharlar odatda ijobiy demografik dinamika ko'rsatdi. 1999–2009 va 2009–2019, 2020-2025 yillarda ham yirik shaharlarga yaqin joylashgan shaharlar eng yuqori o'sish sur'atlarini ko'rsatganini ko'ramiz. Katta shaharlar atrofida bu shaharchalar o'rtacha hisobda yirik shaharlardan 250 km dan ortiq masofada joylashgan juda chekka shaharlarga qaraganda ikki baravar tez o'sdi.

O'ttiz yillik statistik ma'lumotlar, ehtimol, eng yaqin yirik shahardan masofa ortib borayotgan shaharlarda aholi o'sish sur'atining bosqichma-bosqich pasayishini ko'rsatadi. Shunday qilib, eng yaqin yirik shahardan 50 km dan kam masofada joylashgan shaharlar mustaqillik davrida aholi soni o'rtacha 44,2 foizga ko'paydi. Yirik shaharlardan 50-150 km uzoqlikda joylashgan shaharlar uchun bu ko'rsatkich 17,8%, 150-250 km uzoqlikda joylashgan shaharlarda esa aholining o'rtacha o'sishi 7,5% ni tashkil qiladi. Yirik shaharlardan 250 km uzoqlikda joylashgan chekka shaharchalar O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar bo'lgan aholi sonini o'rtacha hisobda tiklagani yo'q.



1-rasm. O'zbekiston shaharlari va o'rta shaharlari aholisining 1989 yildagi o'zgarishi

Shaharlarning o'sish sur'atlarining yirik shaharlardan uzoqligiga qarab farqlanishi, shu jumladan, 200 mingdan ortiq aholiga ega yirik shaharlar markaz va tugun rolini o'ynaydigan tugun shahar tizimlarining shakllanishining yaxshi ko'rsatkichi sifatida qaralishi mumkin, va yaqin atrofdagi shaharlar periferik elementlar sifatida ishlaydi. Shu nuqtai nazardan, nima uchun yirik shaharlar yaqinidagi eng tez rivojlanayotgan shaharlar asosan turar-joy shaharlari ekanligi ma'lum bo'lganligi tushunarli, masalan, yirik shaharlar yaqinida joylashgan shaharlarda demografik o'zgarish tendensiyalarini belgilaydigan bir nechta jarayonlar bo'lishi mumkin. Birinchidan, yirik shaharlar atrofidagi ko'plab shaharlar shahar atrofi sifatida harakat qila boshlaydi va shahar aholisini turar-joy joylari sifatida markazlashgan shaharlardan jalb qiladi. Og'ir sanoat an'anaviy ravishda katta salbiy ta'sir sifatida ko'rilganligi sababli, og'ir sanoati bo'lgan shaharlar aholini eng yaqin yirik shahardan jalb qilishda unchalik yaxshi bo'lmasligi mumkin. Shaharlarni chekka hududlarga aylantirish jarayonini shahar atrofiga aylantirishning kengroq tasvirining bir qismi sifatida ko'rish mumkin, bunda yirik shaharlar nafaqat o'sib, yaqin atrofdagi shaharlarni o'ziga singdiribgina qolmay, balki turar-joy massivlari funksiyasidan qisman voz kechadi.

Rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish O'zbekistonda shaharsozlik va tashkil etishning butun tizimiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shaharlarning o'lchamlari bo'yicha taqsimlanishining yirik shaharlar foydasiga o'zgarishi asosiy tendensiyalardan biri bo'lib, bu yirik shaharlarda aholining asosan kichikroq shahar posyolkalari hisobiga sezilarli darajada to'planishini nazarda tutgan. Shu bilan birga, aholining kichik shaharlardan yirik shaharlarga qayta taqsimlanishi ham urbanizatsiya jarayonini sekinlashtirdi.

Respublikada urbanizatsiya jarayonini to'laqonli rivojlantirish uchun to'siq bo'lib turgan omillardan biri, shahar aholisi tarkibida qishlok xo'jaligi bilan band bo'lgan kishilarning ko'pligidir. Bu sohada O'zbekiston shaharlari MDH mamlakatlari orasida 1-chi o'rinni egallab turibdi.

Mustaqillik yillarida shahar va tipidagi aholi punktlari soni va demografik jarayonlaridagi o'zgarishlardan quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

• Ko'pgina yirik qishloqlar shaharchalarga aylandi va ularda asta-sekinlik bilan noqishloq xo'jalik faoliyati keng yoyila boradi, ammo aholisi demografik munosabatlarida qishloq aholisiga xos qarashlar uzoq vaqt saqlanib qoladi;

• Uncha katta bo'lmagan sanoat korxonlariga bog'langan ko'p sonli shaharchalar rivojlanadi. Bir vaqtlar rivojlanish istiqbollari hisobga olinib tashkil etilgan shahar va shaharchalarda sanoat korxonalarining yopilishi, ish faoliyatidagi qisqartirishlar, aholining ko'chib ketishi aholi o'sish sur'atini pasaytirdi. Xuddi shunday holat, tabiiy geografik o'rni noqulay bo'lgan shaharlarga ham xos bo'ldi;

• So'nggi yillardagi demografik jarayonlar natijasi, sun'iy ko'tarilgan urbanizatsiya darajasining yana pasayishiga zamin bo'lishi mumkin. Shu boisdan, shahar aholi punktlarini hududiy to'g'ri tashkil etish, mintaqalarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini zamon talabida rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida shaharsozlik sohasida shaharcha maqomini berishning me'yoriy mezonlarini asoslash va uni qonun yo'li bilan tasdiqlash hamda ishlab chiqilgan mezonlarga mosligini tekshirish yo'li bilan qishloq aholi manzilgohlari inventarizatsiyasini o'tkazish zarur. Bunda, aholi punktlariga shaharcha maqomini berishning mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarga mosligini tegishli davlat organlari tomonidan qat'iy nazorat ostiga olish talab etiladi.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

Davidovich, V.G. (1967) *O vzaimosvyazannom rasselenii v gorodskih aglomeratsiyah* / V.G. Davidovich // *V pomosch' proektirovshiku-gradostroitel'yu*. Vyp. 7. - Kiev, - S.32-35.

Forrester, J. W. (2008). *Posting to online System Dynamics Mailing List: www.vensim.com/sdmail/sdmail.html*, 7 April, SD 6994, and 14 April, SD 7034.

Geddes P. (1904) *City development : a study of parks, gardens and culture-institutes : a report to the Carnegie Dunfermline Trust; with plan, perspective and 136 illustrations*. - Edinburgh : Geddes & company, Outlook Tower ; Bournville ; Birmingham: The Saint George press, -231 p.

Gottmann J. (2007) *La politique des Etats et leur géographie*. P., P. 223.

Lappo, G.M. (2007) *Aglomeratsii Rossii v HHI veke* / G.M. Lappo, P.M. Polyan, T.V. Selivanova // *Vestnik Fonda regional'nogo razvitiya Irkutskoy oblasti*. - № 1. - S. 45-52. - URL: http://www.frrio.ru/uploads_files/Lappo.pdf (data obrascheniya: 18.02.2023).

Listengurt, F.M. (1975) *Kriterii vydeleniya krupnomasshtabnyh aglomeratsiy v SSSR* / F.M. Listengurt // *Izvestiya Akademii nauk*. - № 1. - S. 41-49.

Pivovarov, Yu.L. (1999) *Osnovy geourbanistiki: urbanizatsiya i gorodskie sistemy* / Yu.L. Pivovarov. M.: Vados. - 232 s.

Polyan, P.M. (1982) *Krupnye gorodskie aglomeratsii Sovetskogo Soyuza* / P.M. Polyan // *Izvestiya RGO*. - T. 114. № 4. - S. 305-314.

Qaror (2005) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-120-sonli qarori*.

Qonun (1996) *"O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunining 12-moddasi*. 30.08.1996 yildagi 276-I-son.

Коломак, Е.А. (2011) *Оценка влияния урбанизации на экономический рост в России* / Е. А. Коломак // *Регион: экономика и социология*. - № 4. - С. 51-69.

Солиев А. (2013). *Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёт (Танланган асарлар)*. - Т.

Tojiyeva Z., Omanova K. (2024) *Mehnat migratsiyasini tadqiq etishning hududiy masalalari. "Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent: -yil 24-oktyabr.*

Tojiyeva Z., Omanova K., Pardayev N., Jaloliddinov N., Bekzod Musayev and Sadriddin Khursanov. (2024) *Regional Characteristics in the Dynamics and Location of the Rural Population of the Republic of Uzbekistan. E3S Web of Conferences 491, 04004. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202449104004>.*

Тюнен И.Г. (1926) *Изолированное государство в его отношении к сельскому хозяйству и национальной экономике: пер. с нем. Т. 1. –М.: Экономическая жизнь, -219 с.*

Ўзбекистон Қонун ҳужжатлари тўплами (2005) № 28-29.- Т.: Б.11.